



BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASI VA BANK SEKTORIDA YASHIL MOLIYANING O'RNI

Mahmudov Ulug'bek

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi*

ORCID: 0009-0009-4166-5686

u_mahmudov@yahoo.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada barqaror rivojlanish konsepsiyasi va bank sektorida yashil moliyaning roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda tijorat banklarining ekologik va moliyaviy risklarni boshqarish amaliyoti, xorijiy mamlakatlar tajribasi, shuningdek, O'zbekiston banklari misollari o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, yashil moliya nafaqat ekologik mas'uliyatni, balki banklarning strategik rivojlanishini ham ta'minlaydi. Ushbu yondashuv moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy modernizatsiya va ekologik xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, yashil moliya, bank sektori, ekologik risk, moliyaviy barqarorlik.

КОНЦЕПЦИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ И РОЛЬ «ЗЕЛЁНЫХ» ФИНАНСОВ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ

Махмудов Улугбек

Научно-исследовательский центр

*«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана»
при Ташкентском государственном экономическом университете*

Аннотация. В данной статье анализируется концепция устойчивого развития и роль «зелёных» финансов в банковском секторе. Исследование охватывает практику управления экологическими и финансовыми рисками коммерческих банков, опыт зарубежных стран, а также примеры банков Узбекистана. Результаты показывают, что «зелёные» финансы обеспечивают не только экологическую ответственность, но и стратегическое развитие банков. Такой подход способствует финансовой устойчивости, экономической модернизации и укреплению экологической безопасности.

Ключевые слова: устойчивое развитие, «зелёные» финансы, банковский сектор, экологический риск, финансовая устойчивость.

THE CONCEPT OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND THE ROLE OF GREEN FINANCE IN THE BANKING SECTOR

Mahmudov Ulugbek

Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" under Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article analyzes the concept of sustainable development and the role of green finance in the banking sector. The study examines the practices of managing environmental and financial risks in commercial banks, foreign experiences, and examples from banks in Uzbekistan. The results indicate that green finance ensures not only ecological responsibility but also strategic development of banks. This approach contributes to financial stability, economic modernization, and strengthening environmental security.*

Keywords: *sustainable development, green finance, banking sector, environmental risk, financial stability.*

Kirish.

Bugungi kunda jahon miqyosida barqaror rivojlanish g'oyasi global iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy adolatni ta'minlash har bir mamlakat oldida turgan ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, "barqaror rivojlanish" konsepsiyasi nafaqat davlat siyosatining, balki xususiy sektor, xususan moliyaviy institutlar faoliyatining ham asosiy mezoniga aylanmoqda.

Barqaror rivojlanish – bu iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va ekologik muvozanat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli jarayondir. Ushbu konsepsiyada "yashil iqtisodiyot" va "yashil moliya" tushunchalari markaziy o'rinni egallaydi. Yashil moliya – bu tabiiy muhitga zarar yetkazmaydigan, ekologik samaradorlikni oshiradigan va uglerod izini qisqartirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirishga xizmat qiluvchi moliyaviy faoliyatdir.

So'nggi yillarda tijorat banklari faqat an'anaviy moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bilan cheklanib qolmasdan, barqaror moliya va yashil investitsiyalar sohasiga ham faol ravishda kirib bormoqda. Bu esa bank tizimining ijtimoiy va ekologik mas'uliyatini kuchaytiradi, ularning korporativ nufuzini oshiradi va xalqaro moliya bozorlarida raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, yashil moliyaviy mahsulotlarni – yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar, yashil sug'urta va ESG-investitsiyalar kabi vositalarini joriy etish, bank faoliyatidagi yangi tendensiya sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda ham barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyotni shakllantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda "yashil iqtisodiyot" strategiyasi qabul qilingan bo'lib, u bank-moliya tizimi faoliyatiga yangi talab va imkoniyatlarni yaratmoqda. Shu munosabat bilan tijorat banklarining yashil moliya sohasidagi ishtirokini kengaytirish, ularning investitsion salohiyatini ekologik yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi va yashil moliya masalalari bugungi kunda xalqaro miqyosda keng o'rganilayotgan ilmiy yo'nalishlardan biridir. Xorijiy va mahalliy olimlar bu borada turli yondashuvlar va nazariy modellarni ilgari surishgan.

Barqaror rivojlanish nazariyasining shakllanishida eng muhim o'rinlardan birini Brundtlandning (1987) "Our Common Future" (Bizning umumiy kelajagimiz) nomli hisobotida bayon etilgan g'oyalar egallaydi. Unga ko'ra, barqaror rivojlanish – bu "hozirgi avlod

ehtiyojlarini qondirgan holda, kelajak avlodlar imkoniyatlariga putur yetkazmaslik” tamoyiliga asoslanadi.

Stiglitz, Sen va Fitouss (2009) fikrlariga ko‘ra, iqtisodiy o‘shni faqat yalpi ichki mahsulot hajmi bilan emas, balki ekologik va ijtimoiy ko‘rsatkichlar bilan baholash lozim. Ular yashil iqtisodiyotni rivojlantirish orqali iqtisodiy tizimni uzoq muddatli barqarorlikka erishishga chaqiradi.

Khan (2022) o‘z tadqiqotlarida yashil moliyaning bank sektoridagi roliga to‘xtalib, tijorat banklari tomonidan yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar va ESG investitsiyalarni rivojlantirish iqtisodiyotning ekologik barqarorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatishini ta‘kidlaydi.

Iqtisodchi olim Rumyanseva (2020) yashil moliya tizimini “mamlakatning ekologik xavfsizligini ta‘minlaydigan strategik moliyaviy mexanizm” sifatida talqin etadi. U bank tizimida ekologik loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini uqtiradi.

Karpovich (2021) o‘z ishlarida yashil investitsiyalar va ularning barqaror rivojlanishga qo‘shadigan hissasini tahlil qilib, bank sektorining bu jarayondagi markaziy o‘rnini asoslab beradi.

Saparbekova (2022) yashil iqtisodiyot siyosatini rivojlantirishda moliyaviy institutlarning faoliyatini strategik rejalashtirish va davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish zarurligini ta‘kidlaydi.

Usmonov (2021) barqaror rivojlanish g‘oyasini milliy iqtisodiyot modeliga integratsiya qilish zarurligini ta‘kidlab, yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida tijorat banklari faol rol o‘ynashi kerakligini qayd etadi.

Shuningdek, Xo‘jayevning (2022) tadqiqotlarida yashil moliya vositalarini mamlakat moliya tizimiga kiritish orqali iqtisodiy o‘sh bilan birga ekologik xavfsizlikni ta‘minlash imkoniyatlari yoritilgan.

Jo‘rayev (3) esa yashil moliya infratuzilmasini rivojlantirishda bank tizimi, sug‘urta va investitsiya kompaniyalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligini alohida ta‘kidlaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy olimlar asosan nazariy model va global yondashuvlarga e‘tibor qaratgan bo‘lsa, MDH va O‘zbekistonlik tadqiqotchilar yashil moliyani amaliyotga tatbiq etish, bank tizimi faoliyatida qo‘llash hamda milliy iqtisodiyot sharoitlariga moslashtirish masalalariga urg‘u berishgan. Shu boisdan, ushbu yo‘nalishda tijorat banklarining yashil moliyaviy mahsulotlarini rivojlantirish istiqbollari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda tijorat banklarining moliyaviy risklarini boshqarish amaliyoti o‘rganildi hamda xorijiy mamlakatlardagi klassik va zamonaviy yondashuvlar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida nazariy adabiyotlar, empirik tadqiqotlar va statistik ma‘lumotlar asosida solishtirma tahlil va tizimli yondashuv usullari qo‘llanildi. Shu orqali banklar o‘rtasidagi risklarni boshqarish tizimlari va turli mamlakatlardagi amaliyotlar o‘rganilib, samarali metodlar va strategiyalar aniqlandi. Empirik tahlil natijalari moliyaviy risklarni boshqarishdagi mavjud muammolar va innovatsion yondashuvlarni aniqlash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi iqtisodiy o‘sh jarayonida ekologik muhofaza va ijtimoiy farovonlikni ta‘minlashni talab qiladi. Ushbu tamoyil moliyaviy tizimning, ayniqsa, bank sektorining faoliyatida muhim strategik vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki banklar iqtisodiyotda kapital taqsimoti va investitsiya oqimlarini boshqarish orqali ekologik jihatdan xavfsiz loyihalarning amalga oshirilishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Yashil moliya banklar faoliyatida resurslardan oqilona foydalanish, zararli chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanadigan energetika loyihalarini qo‘llab-quvvatlash va ekologik risklarni moliyaviy baholash tizimini kengaytirishni nazarda tutadi. So‘nggi yillarda iqtisodiy tizimlarda

an'anaviy kreditlashdan tashqari, ekologik yo'naltirilgan moliyaviy mahsulotlarga talab ortib bormoqda. Bu jarayon moliyaviy barqarorlikning uzoq muddatli ta'minlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston bank sektorida yashil moliya yo'nalishining shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshmoqda. Ekologik qiymatga ega bo'lgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish ulushi sekin oshib borayotgan bo'lsa-da, asosiy muammolar sifatida quyidagilar aniqlanmoqda:

- ekologik risklarni baholash bo'yicha yagona standartlarning yetishmasligi;
- uzoq muddatli arzon moliyaviy resurslar tanqisligi;
- tijorat banklarida ekologik ekspertiza yuritish kompetensiyalarining cheklanganligi.

Shunga qaramay, mavjud tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashil moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish banklar uchun bir vaqtning o'zida iqtisodiy manfaat va ijtimoiy mas'uliyatni uyg'unlashtirish imkonini yaratadi. Yashil loyihalarni moliyalashtirish banklarning xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik darajasini oshiradi, ularning kredit reytingiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

1-jadval

**Bank sektorida yashil moliyalashtirish modelini rivojlantirishga ta'sir
etuvchi asosiy omillar**

Omil	Tavsifi	Ta'sir darajasi	Kutilayotgan natija
Me'yoriy-huquqiy baza	Yashil kreditlash va investitsiyalarni tartibga soluvchi hujjatlar	O'rta	Moliyaviy bozor faoliyatining standartlashuvi
Moliyaviy resurslar	Uzoq muddatli va arzon kapital manbalari mavjudligi	Past	Yashil loyihalarning keng qamrovda moliyalashtirilishi
Banklar strategik yondashuvi	ESG tamoyillarini bank biznes modeliga integratsiya qilish	Rivojlanmoqda	Ekologik xavfsiz kredit portfeli ulushining oshishi

Manba: muallif tomonidan tahlil asosida tuzilgan.

1-jadval tahlili: Jadvaldan ko'rinadiki, bank sektorida yashil moliyalashtirish jarayonining rivojlanishiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omil banklarning strategik yondashuvi hisoblanadi, biroq uzoq muddatli arzon moliyaviy resurslarning yetishmasligi yashil loyihalar hajmining sekin kengayishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston bank tizimida so'nggi yillarda yashil moliyalashtirish yo'nalishida amaliy harakatlar kuzatilmoqda. Xususan:

"O'zbekiston Milliy banki" qayta tiklanadigan energiya loyihalarini moliyalashtirishda faol ishtirok etmoqda. Bank tomonidan quyosh va shamol elektr stansiyalarini barpo etish bo'yicha xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda yirik kredit liniyalari jalb qilingan. Ushbu loyihalar natijasida elektr energiyasi ishlab chiqarishda uglerod chiqindilarini kamaytirish va energiya mustaqilligini kuchaytirish maqsad qilingan.

"Ipoteka-bank" esa kichik xususiy uy xo'jaliklari uchun quyosh panellari o'rnatishni moliyalashtiruvchi kredit dasturini yo'lga qo'ygan. Mazkur kreditlar imtiyozli foiz stavkalari orqali aholining energiya xarajatlarini kamaytirish va ekologik toza energiya iste'molini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

"Agrobank" qishloq xo'jaligida tomchilatib sug'orish va suvni tejavchi texnologiyalarni sotib olish uchun fermer xo'jaliklariga kredit ajratmoqda. Ushbu mexanizm suv resurslaridan oqilona foydalanishni rag'batlantiradi hamda yer unumdorligini saqlashga yordam beradi.

Bundan tashqari, bir qator banklar (xususan, *"Hamkorbank"* va *"Kapitalbank"*) o'z kredit siyosatida ESG tamoyillarini bosqichma-bosqich integratsiya qilishni boshlagan. Banklar kredit berish jarayonida loyihaning ekologik ta'sirini baholash elementlarini kiritmoqda, bu esa kelajakda to'liq ekologik risk menejment tizimiga o'tish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu misollar shuni ko'rsatadiki, yashil moliyalashtirish bozorining shakllanishi jarayoni O'zbekistonda boshlangan, biroq hali kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi. Banklarning tashabbuslari mavjud, lekin ularni keng ko'lamli davlat qo'llovi va standartlashtirilgan baholash metodologiyasi bilan mustahkamlash

Natijalar umumlashtirilganda quyidagi xulosalar shakllanadi:

Birinchidan, yashil moliya banklar uchun faqat ijtimoiy yoki ekologik mas'uliyatni bajarish vositasi sifatida emas, balki bozor sharoitlarida uzoq muddatli strategik rivojlanish yo'nalishi sifatida qaralishi lozim. Chunki ekologik talablarga mos keladigan investitsiyalar va moliyaviy mahsulotlar kelajakda banklarning barqarorlik darajasi, raqobatbardoshligi hamda mijozlar ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Yashil loyihalarni moliyalashtirish bankning korporativ imijini yaxshilaydi, xalqaro reyting agentliklarida baholanish natijalarini ijobiylashtiradi va xorijiy investorlar uchun jozibadorlik darajasini oshiradi.

Ikkinchidan, banklarda ekologik risklarni baholash metodologiyasining takomillashtirilishi zarur. Ekologik risklarni inobatga olmagan kreditlash faoliyati kelajakda moliyaviy yo'qotishlarga, loyihaning to'xtashi yoki qaytarilmas zararlar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli banklar kredit ekspertizasiga atrof-muhitga ta'sirini baholash mezonlarini kiritishi, ekologik xavf darajasiga qarab foiz stavkalari, kredit muddatlari yoki qo'shimcha kafolat shartlarini moslashtirishi lozim.

Uchinchidan, yashil kreditlash samaradorligi ko'p jihatdan davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash choralari bilan belgilanadi. Davlat tomonidan soliq imtiyozlari, subsidiyalar, grant dasturlari va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikning kengaytirilishi banklar uchun yashil moliyalashtirishni iqtisodiy jihatdan jozibador qiladi. Masalan, qayta tiklanadigan energetika, chiqindilarni qayta ishlash yoki ekologik transportni rivojlantirish bo'yicha loyihalarda davlat kafolati yoki foiz kompensasiyasi katta ahamiyatga ega bo'ladi.

To'rtinchidan, yashil moliya infratuzilmasining kengaytirilishi iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Yashil texnologiyalarni moliyalashtirish yangi ishlab chiqarish segmentlarini shakllantiradi, innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi va mehnat bozorida yangi malakali ish o'rinarining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, ekologik talablarga javob beradigan ishlab chiqarish korxonalarining ko'payishi eksport salohiyatini oshiradi va global bozorga integratsiyani tezlashtiradi.

Shu bois, bank sektorida yashil moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish O'zbekiston uchun faqat ekologik xavfsizlikni ta'minlash omili emas, balki iqtisodiy modernizatsiya jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Yashil moliya orqali iqtisodiyotning barqaror tarkibiy yangilanishi, resurslardan samarali foydalanish, energiya tejankor texnologiyalarning keng joriy etilishi va investitsiya oqimlarining barqarorlashuvi ta'minlanadi. Bu esa o'z navbatida nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki aholining hayot sifati va ekologik muhitning sog'lom saqlanishini ham kafolatlaydi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, barqaror rivojlanish konsepsiyasi va yashil moliya tizimini rivojlantirish bank sektorining strategik vazifalaridan biridir. Yashil kreditlash va ekologik yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ekologik xavfsizlik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekiston banklarida yashil moliyalashtirish mexanizmlari bosqichma-bosqich rivojlanayotgan bo'lsa-da, kredit resurslari bazasining cheklanganligi, ekologik risklarni baholash standartlarining to'liq shakllanmagani, shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikning yetarli darajada kengaymaganligi ushbu yo'nalishning samaradorligini cheklamoqda.

Shunga asoslanib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish. Yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar va ESG investitsiyalarini tartibga soluvchi alohida milliy standartlar va metodik ko'rsatmalar ishlab chiqilishi zarur.

2. Banklarda ekologik risklarni baholash mexanizmini joriy etish. Kredit ekspertizasi jarayoniga loyiha atrof-muhitga ko'rsatadigan ta'sir darajasini aniqlovchi ekologik indikatorlar qo'shilishi lozim.

3. Uzoq muddatli arzon moliyaviy resurslarni jalb qilish. Xalqaro moliya tashkilotlari, xususan, EBRD, IFC, AIIB va boshqa institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish yashil loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatini kengaytiradi.

4. Davlat qo'llovi mexanizmlarini kuchaytirish. Yashil texnologiyalarni joriy qiluvchi korxona va aholi uchun subsidiyalar, soliq imtiyozlari va foiz stavkalarini qisman kompensatsiya qilish mexanizmlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

5. Aholi va tadbirkorlar o'rtasida moliyaviy-eko savodxonlikni oshirish. Yashil iqtisodiyotning afzalliklari bo'yicha axborot-konsalting xizmatlarini kengaytirish orqali talabni shakllantirish mumkin.

6. Banklarning tashkiliy strategiyasiga ESG tamoyillarini integratsiya qilish. Bunda korporativ boshqaruv, mas'uliyatli investitsiya siyosati va ekologik hisobotlarni muntazam yuritish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, yashil moliya tizimining rivojlanishi O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshiradi, ekologik xavfsiz ishlab chiqarish modeliga o'tishni tezlashtiradi va jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar /Literatura / Reference:

Brundtland, G.H. (1987). *Our Common Future. World Commission on Environment and Development.* Oxford University Press.

Jo'rayev, I.A. (2023). Yashil moliya infratuzilmasini rivojlantirishda moliyaviy institutlar hamkorligi. *Innovatsion iqtisodiyot jurnali*, 5(2), 66–75.

Khan, M.Z. (2022). *Green finance and its role in sustainable banking sector development. Journal of Sustainable Economics*, 5(3), 45–58.

Stiglitz, J., Sen, A., & Fitoussi, J. (2009). *Report by the Commission on the Measurement of Economic Performance and Social Progress.* Paris.

Xo'jayev, S.Q. (2022). Yashil moliya vositalari: nazariya va amaliyot. *Moliyaviy tadqiqotlar jurnali*, 3(1), 29–37.

Карпович, Т.В. (2021). Зеленые инвестиции и их влияние на устойчивое развитие экономики. *Экономические исследования Беларуси*, 9(2), 55–67.

Румянцева, Н.П. (2020). Зелёные финансы как механизм обеспечения экологической безопасности национальной экономики. *Финансы и кредит*, 26(4), 12–21.

Сапарбекова, А.А. (2022). Развитие зеленой экономики в Казахстане: стратегические направления и финансы. *Вестник экономики и бизнеса*, 4(38), 74–82.

Усмонов, М.Т. (2021). O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etishning moliyaviy mexanizmlari. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 6(3), 113–120.